O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI
SHOVOT TUMANI HOKIMINING
QARORI

2023 - yil 29 - dekabr 530-12-177-Q/23 Shovot tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 y., 9-son, 320-modda*), “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi (*Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020 y., 03/20/642/1396-son; 02.04.2021 y., 03/21/681/0264-son;*), “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.10.2020 y., 03/20/641/1389-son) O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 965-son qaroriga (*Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.12.2017 y., 09/17/965/0393-son*) asosan tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni (keyingi o‘rinlarda **muhtojlar** deb ataladi) ish bilan ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Shovot tuman adliya bo‘limining 2023-yil 17-noyabr 1-90/26-1//123-sonli “Qonun hujjatlarining buzilishi, ularning sabablari va bunga olib keluvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida”gi taqdimnomasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Shovot tumanida 2024-yil uchun muhtojlarni ishga joylashtirish maqsadida, ish o‘rinlarini band qiladigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar ro‘yxati 1-

ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu qarorning 1-ilovasida ko‘rsatilgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha sonidan kelib chiqqan holda 89 kishini tashkil etadigan ish o‘rni 100 foiz miqdorida, shu jumladan;

o‘n to‘rt yoshgacha bolalari bo‘lgan va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 5,6 foiz (5 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilar uchun 81 foiz (72 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 7 foiz (6 kishi);

nogironlar uchun 2,2 foiz (2 kishi);

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 1.1 foiz (1 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 2,2 foiz (2 kishi);

odam savdosidan jabrlanganlar uchun 1.1 foiz (1 kishi);

4. Ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan sanitariya-gigiena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishi kerak, shu jumladan;

o‘n to‘rt yoshgacha bolalari bo‘lgan va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha vazifalarni uyg‘unlashtirish imkonini beradigan, o‘zgaruvchan ish jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilar uchun ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun

ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironlar uchun mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan hamda xodimga ish jarayonlarini to‘sqinliksiz bajarish imkonini (sog‘ligining ahvoli va mehnat faoliyatiga nisbatan belgilangan zid ko‘rsatkichlarni hisobga olgan holda) beradigan ish o‘rinlari;

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun maxsus malaka talab qilinmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun hamda odam savdosidan jabrlanganlar uchun esa maxsus malakani talab qilmaydigan shuningdek, odam savdosidan jabrlanganlar uchun ish o‘rinlari tashkil qilinsin;

5. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda muhtojlarni ishga joylashtirish uchun band qilingan kasb va lavozimlar ro‘yxati
2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Ushbu qarorning 1-ilovasiga muvofiq ish o‘rinlarini band qiladigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq muhtojlar uchun ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlasinlar.

7. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish bo‘yicha mazkur qaror ijrosini bajarmagan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mansabdor shaxslariga nisbatan davlat huquq mehnat inspektori tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksning
50-moddasi talablariga muvofiq jarima solinadi.

8. Axoli bandligiga ko‘maklashish tuman markazi bir hafta muddatda ushbu qarorni 1-ilovada ko‘rsatilgan korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari e’tiboriga yetkazsin.

9. Ushbu qaror 2024-yil 1-yanvardan kuchga kirishi munosabati bilan tuman hokimining 2022-yil 12-oktyabrdagi 726-12-177-Q/22-sonli hamda 2023-yil 26-

oktabrdagi 410-12-177-Q/23-son qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qaror tuman hokimligining rasmiy nashri hisoblangan “Shovot istiqboli” gazetasida e’lon qilinsin.

11. Tuman hokimligining axborot xizmati bo‘limi (S.Yuldoshev) tuman hokimligi bosh yuriskonsulti bilan hamkorlikda (M.Saidov);

mazkur qarorni tuman hokimligining shovottuman.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirsin;

Shovot tuman kambag‘alikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bilan birgalikda ushbu qarorning mazmun mohiyatini aholiga tushintirish ishlarini olib borsinlar.

12. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Shovot tuman hokimining birinchi o’rinbosari (S.Saidov) va Shovot tuman kambag‘alikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (N.Bakiyev)lar zimmasiga yuklatilsin.

Shovot tumani hokimi **O.Xolboyev**

Shovot tuman hokimining
2023-yil 29-dekabrdagi
530-12-177-Q/23-son qaroriga
1-ilova

2024 йилда Шовот тумани бўйича ижтимоий муҳофазага муҳтож ва иш топишда қийналаётган шахсларни ишга жойлаштириш учун банд қилиб қўйилган иш ўринлари тўғрисидаги Қарорни олганлик тўғрисида

МАЪЛУМОТ

№	Корхона, ташкилот, муассасалар номлари	ИНН	Жами ишловчи	сектор бўйича	Келгуси йилга захирага қўйиш таклиф этилаётган иш ўринлари сони	шундан							
						ногиронлиги бўлган шахслар учун банд қилинган иш ўринлари сони	14 ёшга тўлмаган болалари, ногиронлиги бўлган болалари бор ёлғиз отага ёки онага, шунингдек кўп болали оилаларнинг ота-оналар учун банд қилинган иш ўринлари сони	«Меҳрибонлик» уйларининг битирувчилари, шунингдек олий таълим муассасаларининг давлат грантлари бўйича таълим олган битирувчилари учун банд қилинган иш ўринлари сони умумий ўрта ва ўрта махсус таълим ташкилотларини, касб-ҳунар мактабларини, касб-ҳунар коллежларини ҳамда техникумларни тамомлаб, касбга эга бўлган ёшлар учун банд қилинган иш ўринлари сони	муддатли ҳарбий хизматдан бўшатилган шахслар учун банд қилинган иш ўринлари сони	пенсияолди ёшидаги шахслар учун банд қилинган иш ўринлари сони	жазони ижро этиш муассасаларидан озод қилинган ёки суд қарорига кўра ўзига нисбатан тиббий йўсиндаги мажбурлов чоралари қўлланилган шахслар учун банд қилинган иш ўринлари сони	одам савдосидан жабрланганлар учун банд қилинган иш ўринлари сони	Атрофдагилар учун хавф туғдирмайдиган ижтимоий аҳамиятли касалликлардан азоб чекувчи шахслар учун иш ўринлари сони
1	“TEXTILE FINANCE KHOREZM” МЧЖ ҚК	304758460	1257	3	10		4	4	2				0
2	Шовот туман Йўллардан фойдаланиш корхонаси	200422141	74	2	2				2				
3	8-сон болалар мусика ва санъат мактаби	203416035	56	4	1			1					0
4	Ободонлаштириш бошкармаси	206945071	363	2	11	2	1	2	2	1	2	1	
5	1 -сон умумий ўрта таълим мактаби	203448043	127	4	1			1					
6	2 -сон умумий ўрта таълим мактаби	204214516	98	2	1			1					0
7	3 -сон умумий ўрта таълим мактаби	203317198	53	2	1			1					0

8	4 -сон умумий ўрта таълим мактаби	203312205	85	3	1			1					0
9	5 -сон умумий ўрта таълим мактаби	203312244	102	4	1			1					
10	6 -сон умумий ўрта таълим мактаби	206908378	63	1	1			1					0
11	7 -сон умумий ўрта таълим мактаби	205197704	70	1	1			1					0
12	8-сон умумий ўрта таълим мактаби	203314899	66	1	1			1					0
13	10 -сон умумий ўрта таълим мактаби	203312213	82	1	1			1					0
14	12-сон умумий ўрта таълим мактаби	203409502	94	1	1			1					0
15	14 -сон умумий ўрта таълим мактаби	203448067	91	4	1			1					0
16	15 -сон умумий ўрта таълим мактаби	206902046	39	4	1			1					0
17	16 -сон умумий ўрта таълим мактаби	203326622	58	4	1			1					0
18	17 -сон умумий ўрта таълим мактаби	203312220	73	4	1			1					0
19	18 -сон умумий ўрта таълим мактаби	203448050	71	2	1			1					0
20	19 -сон умумий ўрта таълим мактаби	204340391	50	1	1			1					0
21	20 -сон умумий ўрта таълим мактаби	203450858	46	3	1			1					0
22	21 -сон умумий ўрта таълим мактаби	203424951	102	3	1			1					0
23	23 -сон умумий ўрта таълим мактаби	203475944	88	3	1			1					0

24	25 -сон умумий ўрта таълим мактаби	203518779	70	2	1			1					0
25	26 -сон умумий ўрта таълим мактаби	206905564	54	2	1			1					0
26	27 -сон умумий ўрта таълим мактаби	204258936	61	4	1			1					0
27	28 -сон умумий ўрта таълим мактаби	204647207	58	3	1			1					0
28	29 -сон умумий ўрта таълим мактаби	203402837	80	3	1			1					0
29	30 -сон умумий ўрта таълим мактаби	206906301	40	3	1			1					
30	31 -сон умумий ўрта таълим мактаби	206906318	65	3	1			1					0
31	32 -сон умумий ўрта таълим мактаби	203166901	58	1	1			1					
32	33 -сон умумий ўрта таълим мактаби	203349048	61	2	1			1					0
33	34 -сон умумий ўрта таълим мактаби	206902078	45	1	1			1					0
34	36-сон умумий ўрта таълим мактаби	206904233	50	4	1			1					0
35	37 -сон умумий ўрта таълим мактаби	203412753	83	4	1			1					0
36	38 -сон умумий ўрта таълим мактаби	203424968	98	4	1			1					0
37	39 -сон умумий ўрта таълим мактаби	203409494	66	4	1			1					0
38	40 -сон умумий ўрта таълим мактаби	203463532	59	1	1			1					0
39	41 -сон умумий ўрта таълим мактаби	203435811	61	2	1			1					

40	42 -сон умумий ўрта таълим мактаби	203469247	66	2	1			1					0
41	43 -сон умумий ўрта таълим мактаби	206913246	61	4	1			1					0
42	44 -сон умумий ўрта таълим мактаби	206904859	48	3	1			1					0
43	47 -сон умумий ўрта таълим мактаби	206905571	47	1	1			1					0
44	49-сон Айрим фанлар чуқур ўқитиладиган синфлари мавжуд умумий ўрта таълим мактаби	206155414	67	4	1			1					0
45	50 -сон умумий ўрта таълим мактаби	206902061	40	4	1			1					
46	51 -сон умумий ўрта таълим мактаби	206909756	46	2	1			1					0
47	52 -сон умумий ўрта таълим мактаби	206906293	40	1	1			1					0
48	53 -сон умумий ўрта таълим мактаби	206933395	57	2	1			1					0
49	3-сон Давлат мактабгача таълим ташкилоти мактабгача таълим муассасаси	207085675	27	3	1			1					
50	8-сон Давлат мактабгача таълим ташкилоти мактабгача таълим муассасаси	207082885	34	4	1			1					0
51	12-сон Давлат мактабгача таълим ташкилоти мактабгача таълим муассасаси	207084369	28	3	1			1					0
52	13-сон Давлат мактабгача таълим ташкилоти мактабгача таълим муассасаси	207085081	36	4	1			1					
53	14-сон Давлат мактабгача таълим ташкилоти мактабгача таълим муассасаси	207084922	42	4	1			1					
54	17-сон Давлат мактабгача таълим ташкилоти мактабгача таълим муассасаси	207085952	29	4	1			1					0
55	20-сон Давлат мактабгача таълим ташкилоти мактабгача таълим муассасаси	207084653	29	2	1			1					

56	26-сон Давлат мактабгача таълим ташкилоти мактабгача таълим муассасаси	305536357	70	1	1			1					
57	30-сон Давлат мактабгача таълим ташкилоти мактабгача таълим муассасаси	305537023	32	4	1			1					0
58	31-сон Давлат мактабгача таълим ташкилоти мактабгача таълим муассасаси	305534193	34	4	1			1					0
59	32-сон Давлат мактабгача таълим ташкилоти мактабгача таълим муассасаси	305536508	29	1	1			1					
60	33-сон Давлат мактабгача таълим ташкилоти мактабгача таълим муассасаси	305755084	37	4	1			1					0
61	34-сон Давлат мактабгача таълим ташкилоти мактабгача таълим муассасаси	207298133	39	4	1			1					0
62	35-сон Давлат мактабгача таълим ташкилоти мактабгача таълим муассасаси	207298133	45	4	1			1					0
63	36-сон Давлат мактабгача таълим ташкилоти мактабгача таълим муассасаси	307998042	29	3	1			1					0
64	37-сон Давлат мактабгача таълим ташкилоти мактабгача таълим муассасаси	307998138	39	3	1			1					0
65	38-сон Давлат мактабгача таълим ташкилоти мактабгача таълим муассасаси	308040696	35	1	1			1					0
66	1-сон Давлат мактабгача таълим ташкилоти мактабгача таълим муассасаси	308421134	73	4	1			1					0
67	40-сон Давлат мактабгача таълим ташкилоти мактабгача таълим муассасаси	309011802	34	1	1			1					0
68	41-сон Давлат мактабгача таълим ташкилоти мактабгача таълим муассасаси	309500028	32	1	1			1					0
69	42-сон Давлат мактабгача таълим ташкилоти мактабгача таълим муассасаси	309900369	39	3	1			1					
Жами			**5481**	**187**	**89**	**2**	**5**	**72**	**6**	**1**	**2**	**1**	0